



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
<i>Xuseynova Abira Amanovna</i>	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
<i>Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna</i>	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
<i>Abdurasulova Gulrux Habibullayevna</i>	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinoz Elyorjon qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
<i>Asatova Dildora Aslamovna</i>	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
<i>Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna</i>	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
<i>Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna</i>	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
<i>Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi</i>	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
<i>Mirxalilova Nargiza Akbarovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
<i>Mitaliboyeva Dildora</i>	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
<i>Nartayeva Shahoza Yulchibayevna</i>	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
<i>Normatova Nilufar Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
<i>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</i>	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
<i>Qodirov Jurabek Mamatsimonovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model.....	83
<i>Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi</i>	
“Sab'ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
<i>Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna</i>	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
<i>Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
<i>Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
<i>Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo</i>	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	



“SAB’AI SAYYOR” ASARIDA QO‘LLANGAN ONOMASTIK BIRLIKLAR HAQIDA MULOHAZALAR

Gadayev Oybek Yaxshiboyevich
 Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi
 Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi onomastik birliklar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Biz yashayotgan hozirgi makonda har narsaning nomi bor. Eng yirik predmetlardan tortib ko’zga ko’rinmas zarrachalargacha o’z nomiga ega. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo’lish mumkin emas. Nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir.

Kalit so’zlar: onomastika, toponim, toponimiya, toponimika, etimologiya, so’zlashuv uslubi.

Abstract: The article provides a brief overview of the onomastic units in Navoi’s epic poem “Sab’ai sayyor”. In the space in which we live today, everything has a name. From the largest objects to invisible particles, it is impossible to exist in this world without a name. A name is necessary to distinguish things and phenomena from each other.

Key words: onomastics, toponym, toponymy, etymology, colloquialism.

Аннотация: В статье дан краткий обзор ономастических единиц в поэме Навои “Сабайи сайёр”. В современном пространстве, в котором мы живём, всё имеет название. От самых крупных предметов до невидимых частиц – в этом мире невозможно существовать без имени. Имя необходимо для различения вещей и явлений.

Ключевые слова: ономастика, топоним, топонимика, этимология, разговорная речь.

KIRISH

“Sab’ai sayyor” asari o’zbek adabiy merosida alohida o’rin tutuvchi badiiy matn bo’lib, unda qo’llangan onomastik birliklar – ismlar, toponimlar, etnonimlar, ramziy nomlar va mifologik atamalar asarning mazmuni hamda badiiy strukturasi shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Asardagi nomlar nafaqat qahramonlarning xarakterini ochib berish, balki Sharq adabiy an’analari, qadimiy tasavvurlar va ramziy-majoziy mazmunlarni yoritishda ham asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi. Onomastik birliklar orqali muallif voqealar rivoji, obrazlar tizimi va g’oyaviy yo’nalishni chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Shu bois mazkur maqolada “Sab’ai sayyor” asarida qo’llangan onomastik birliklarning turlari, ularning semantik yuklamasi, badiiy-funksional vazifalari haqida qisqa ilmiy mulohazalar keltiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O’zbek tilida bu termin o’rnida ism, kishi ismi, odam otlari kabi terminlar qo’llaniladi ^[1]. Ismlarda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo’ladi. Ismlar ma’lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o’rni haqida ham xabar beradi. Insoniyat paydo bo’lganidan beri uning ismi ham mavjud. Ismsiz inson yo’q. Leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (nomlarini) o’rganuvchi bo’limi ^[2]. Antroponimika o’rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan bo’lsa, o’zbek tilidagi kishi atoqli oti bo’lgan quyidagi onomastik vositalar o’zbek antroponimiyasining birliklaridir:

- 1) ismlar – konkret shaxsga berilgan ismlar;
- 2) laqablar;
- 3) taxalluslar;
- 4) o’zbeklarda shaxsni nomlashning o’tmishda mavjud bo’lgan ba’zi shakllari (“qizi”, “o’g’li”) yordamida nomlash;

5) shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlari nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida ^[3].

Yuqorida keltirilgan antroponimik birliklar o'zbek antroponimiyasida o'rganiladi.

Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi onomastik birliklarga e'tibor qaratamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, onomastika tarkiban bir qancha bo'limlarga bo'linadi. Doston an'anaviy tarzda hamd, na't va munojot bilan boshlanadi. Asarning aynan shu qismlarida teonim hamda kosmonimlar ko'p bora qo'llangan. Dostonda Bahrom va Dilorom voqealari, shu asosda turli masalalarni yorituvchi yetti hikoyat bayon qilinadi. Asar davomida sodda va qo'shma shakldagi turli xil antroponimlarga ko'zimiz tushadi. Uning arab tilidagi darsi bir duo misoldir. Kamina Ibn Hojibning shogirdi edi. Yo'q, Ibn Hojibning emas, Oллоhning yori, tafsir ilmining bilimdoni. U diniy ilmlarni harfma-harf o'rgangan, uning tili, zikri va so'zi ham diniy ilmlarga mansubdir ^[4].

Dostonning 7-bobi "Hazrat shayxulislom mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy" madhiga bag'ishlangan. Navoiy uni fazl koni va ilm daryosi deb atar ekan, ustozini arab tilidagi bilimdonligi jihatidan "Kofiya" asari muallifi Ibn Hojibga, tafsir ilmida yuzta Ibn Hojarga, fiqh ilmida Imomi A'zamga o'xshatadi. Jomiyning bu sohalarda yaratgan asarlari, devonlari va dostonlarining nomlarini keltiradi. (Asl ismi: Jamoliddin Abu Amr Usmon ibn Umar. Hijriy 570-yilda tavallud topgan. Arab grammatikasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Jomiy unga "Sharh mulla Jomiy" nomli sharh bitgan. Shu sababli Navoiy uni Jomiy bilan bog'lagan) ^[5].

Ha, Diloromning payvasta hilol qoshlari Bahromni hiloldek nozik va xasta qilib tashladi. U yorining kiyik ko'zlarini ko'z oldiga keltirarkan, ko'nglining dashtida yuzlab jayronlarning yugurib yurganini his etardi. U kiyikdek go'zal yorini o'ylab joni qolmagani uchun uni charxning Bahromi Go'ri deb atashdi. Bu parcha asarning XVII bobidan olingan bo'lib, "go'r" – yovvoyi eshak, qulon, ikkinchi misrada esa "qabr, mozor" ma'nosida qo'llangan. Bu so'z Bahrom ismi bilan birga ishlatilishining sababi shundaki, shoh shu hayvon ovini juda sevgan. "Go'r" Bahromning laqabiga aylangan. "Ani Bahrom Go'r dedilar, muning jihatini ba'zi dedilarkim, go'rni sher sayd qilganda, aning o'qi egnisidin o'tub yerga tegdi. Ba'zi debturlarkim, go'r oviga ko'p moyil erdi" ^[6].

Antroponimlar tizimida laqablar ham o'ziga xos o'rin tutadi. Laqab so'zi arabcha bo'lib, "ikkinchi nom" ma'nosini ifodalaydi ^[7].

E. Begmatov ta'rificha, "Laqab – shaxsga uning atrofda qilari tomonidan beriladigan, kishining xarakterli belgi va xususiyatini ifoda qiluvchi, asosan shaxs ismi bilan birga qo'llanuvchi nom" ^[8].

Laqablar bo'yicha A. Ishaevning "Mang'it shevasidagi laqablarga doir" ishi e'tiborga loyiq ^[9]. Laqablarda nominativlik bilan bir qatorda ekspressivlik mavjudligi, ba'zi laqablar salbiy emotsional bo'yoqqa ega bo'lsa, ayrimlari ijobiy bahoga ega bo'lishi va boshqa xususiyatlari E. Qilichevning maqolasida yaxshi tahlil qilingan ^[10].

O'zbek tilida laqab so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

- 1) biror xususiyatiga ko'ra kishilarga hazil yoki masxara tariqasida berilgan qo'shimcha nom; shuningdek, ma'lum maqsadda o'zgartirib olingan nom;
- 2) esk. aynan taxallus – Muhammad Aminxo'jani endi xalq Muqimiy deb taniy boshladi. Seni ham xalqqa bir laqab bilan tanishtirishni istayman. Sening laqabing Mavlaviy bo'lsin! – dedi ustoz (S. Abdulla, "Mavlono Muqimiy");
- 3) esk. aynan familiya;
- 4) hayvonlarga qo'yilgan nom ^[11].

Bahrom ismining izohini E. Begmatov quyidagicha tavsiflaydi: "Bahrom (ft.) – Mirrix (Mars) sayyorasining nomidan. U baxt-saodat timsoli hisoblanadi yoki Bahrom (qadimgi Eron shohlaridan biri)dek mard, jasur bo'lsin" (O'xshashlari: Bahromali, Bahromqul, Bahromiddin) ^[12]. Navoiy o'z asarida har ikki ta'rifga mos keluvchi o'rinlarni keltiradi. Masalan: Osmon sen tufayli sayr etuvchi, yer esa osoyishta, falakdagi Bahrom g'azabnok, Zuhraning Diloromi esa chang chaluvchidir. Sen dahrning bunyodini qilayotganingda ko'k samoni yetti gumbaz bilan yaratding yoki Quyosh o'zining ulug'vorligidan uyalib yerga kirib ketgan edi. Uning savlatini ko'rgan Bahrom qilichini qiniga solib, unga dam berdi. Nurdan yuzidagi gardi zohir bo'lgan Mushtariy esa tezda o'z minbaridan tushdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dostonning eng katta qismini antroponimlar tashkil etadi. Bular quyidagilar: Navoiy, Nizomiy Ganjaviy, Qorun, Xusrav, Ashraf, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Ibn Hojib, Ibn Hojar, Imomi A'zam, Ibn Foriz, Xusrav Dehlaviy, Husayn Bahodirxon, Sulton Husayn bin Mansur, Xon bin Xon, Chingizxon, Alanquva, Rustam, Isfandiyor, Bahrom (Bahrom Go'ri), Anushirvon, Ozar o'g'li Halilluloh, Yazdijird, No'mon, Munzir, Sinmor, Xusravi G'ozi (Husayn Boyqaro), Moniy, Dilorom, Farhod, Shirin, Xonu, Jasrat, Farrux, Axiy, Xorun, Muso, Zayd Zahhob, Jamshid, Sa'd, Faylaqus, Mohruh, Juna, Ma'sud, Xisrav Parvez, Jaypur, Ballu, Jobir, Navdar, Mehr, Ma'mun, Suhayl, Muqbil, Qatron, Mudbir, Aflotun, Kofur, Afridun (Faridun), Kayumars, Tahmuras, Hushang,



Zahhok, Gushtosp, Gurshosp, Kayqubod, Kaykovus, Kayxusrav, Tahamtan, Tus, Doro, Bahman, Iskandar, Dorob, Ashk bin Doro, Som, Mirzo Husayn kabilar hisoblanadi. Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'-adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-biridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o'ylab chiqargan. Joy nomlari geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi.

Toponimlarni toponimika fani o'rganadi. Toponimika yunoncha topos – joy va onoma (yoki onima) – nom so'zlaridan tarkib topgan. Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi. Bular gidronimiya (yunoncha gidro – suv), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha oros – tog'), ya'ni yer yuzasining relyef shakllari – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos – uy), polinimiya (yunoncha polis – shahar) yoki urbanonimiya (lotincha urbos – shahar), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari; mikrotoponimiya (yunoncha mikros – kichik), ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hatto atqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlar nomlari.

Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan ataladigan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos – xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha antropos – odam) deb atash mumkin. Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Shu bilan birga, joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning polikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan – tarkibiy qismlardan iborat bo'lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok eta olishida o'z aksini topadi.^[13]

TAHLIL VA NATIJALAR

Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostonida hisob-kitoblarga ko'ra 44 ta toponim qo'llangan. Bular: Abtahi, Yasrib, Makka, Madina, Hind (ayrim o'rinlarda Hindiston), Chin, Eram bog'i, Xuroson, Rum, Iroq, Ajam, Yaman, Ka'ba, Havornaq (qasr), Xitoy, Eron, Qaysar (Rumda), Xo'tan, Kashmir, Sarandib, Quddus, Halab, Farangiston; Farang (Yevropa), Kustantaniya, Misr, Shahrisabz (ayrim o'rinlarda Kash), Xaybar, Sharq, Dehli, Taroz, Junpur, Darbast, Adan, Boxtar, Xovar, Xorazm, Gulrang qasr, “Vodiyi hamim” (Qaynoq vodiy), “Jahon oro” (bog' nomi), “Behisht saro”, “Ravzayi hazro” (yashil bog'), “Qasri axzar” (yashil qasr) va afsonaviy joy nomlari bo'lgan “Lo makon”, “Raf-raf” birliklari ham mavjud. Bu toponimlarning ayrimlari Navoiyning o'zi yaratgan to'qima toponimlardir. Ayrim toponimlar lug'atlarda mavjud emas, chunki ijodkor doimo reallikka intila olmaydi, asar badiiyligi uchun to'qima obraz va to'qima joy nomlaridan ham foydalanadi. Jumladan, dostonning toponimiyasi tarkibida bo'lgan gidronimlar ham ishtirok etgan. Ular kamchilikni tashkil etadi. Sadra (soy nomi), Jayxun, Salsabil, Nil (daryo nomlari), Kavsar suvi kabi gidronimlar qo'llangan.

To'p, to'par, shox, tira, jamoa, toifa, avlod, qavm, urug', qabila, elat, xalq, millat nomlari etnonimlar deyiladi. Etnonim yunoncha etnos – “xalq” va onim – “nom” so'zlaridan tarkib topgan. Etnonimlar majmui – etnonimiya, etnonimlarni o'rganadigan fan – etnonimika deyiladi. Etnonimlar etnonimika, etnografiya, tarix, tilshunoslikning hali yaxshi o'rganilmagan sohasi bo'lib, millatlar etnogenezini yanada chuqur tahlil qilishga katta yordam beradi. V.A. Nikonov o'zi ta'riflab bergan nisbiy negativlik qonuniga amal qilib, etnotoponimlar biron millat yoki xalq yashaydigan hududning markaziy qismida emas, balki bu hududning chekka qismida, ya'ni ikki xalq aralash yashaydigan chegaradosh zonadagina bo'ladi. Bu nomlar tarixiy davrlarda xalqlarning qayerlarda yashaganligi va o'zaro aloqalaridan guvohlik beradi.^[14]

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” ida juda ko'p xalq, qabila, toifa nomlari – etnonimlar tilga olingan. Mahmud Qoshg'ariy “Devon” ning bosh qismida turk qabilalari haqida so'z yuritib: bajanak, qipchoq, o'g'uz, yamak, basmil, qay, yabaku, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'ma, ig'roq, jaruq, jumul, uyg'ur, tangut, xitoy; kitobning lug'at qismida esa kenjak, bayot, sag'doq, uch, qorluq, o'groq, kucha, balaq, kalach, aramut, turkman, qiniq, salg'ar kabi etnonimlarni ham tilga olgan.^[15]

Atqli otlar oldiga qo'yiluvchi lingvistik belgilar nuqtayi nazaridan etnonimlarni atqli otlar kategoriyasiga kiritib bo'lmaydi, lekin etnonimlar atqli ot bo'lmasa-da, atqli otlar bilan, ayniqsa, antroponimlar va toponimlar bilan aloqador leksik guruhlardir. Shu sababli tilda etnonimdan yasalgan toponim va antroponimlar, ayniqsa, geografik nomlar keng tarqalgan.^[16]

Dostonda etnonimlar ham qo'llangan va ular ozchilikni tashkil etadi. Bular: Qurayshiy, arab, ajam, hind, turk, rum, xabash, kishvar (xalq orasida Kitvar deb ataladi), xayli kabilardir. Har bir etnonimning o'z etimologiyasi mavjud. Endi ularning etimologiyalariga to'xtalamiz. “U ajamda ham arabdagidek maqomga ega bo'lib, arab bilan ajam o'rtasida bordi-keldi qilib turar edi” jumlasidagi ajam etnonimi “arab xalqlari va mamlakatlaridan boshqasi (ko'pincha Eron mamlakati va xalqiga aytiladi); Ajam muluki – Eron podshohlari; Ajam shuarosi – fors shoirlari”^[17] degan ma'noni bermoqda.

Ayrim saytlarda ajam (arab. – “arab emas”) arablardan boshqa Sharq xalqlarining umumiy nomi sifatida izohlanadi. Shuningdek, arablar yashaydigan Sharq mamlakatlari, xususan Turon va Eron “Mulki ajam” deb yuritilgan. Bu yerlardan yetishib chiqqan olimlar “ajamiy” deb atalgan. Keyinchalik Ajam nomi faqat eronliklarga

nisbatan qo'llanilgan, Eron esa Ajam yoki Ajamiston deb atalgan.^[18] Bu yerda ajamni etnotoponim sifatida qabul qilamiz: dastlab toponim bo'lgan, keyinchalik etnonimiga ko'chgan, ya'ni joy nomidan urug' nomiga aylangan. Bugungi kunda ajam xalq nomi mavjudligi ma'lum.

Ma'lumki, kosmonim (yunoncha xósmos – kosmos, olam, koinot + onoma – atoqli ot) kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli oti, onomastik ko'lam tiplaridan biridir^[19]. Kosmonimlar olam, koinot obyektlari, Oy, Quyosh va boshqa fazoviy jismlar nomlari bo'lib, ularning jamul jami kosmonimiya, tadqiq etuvchi soha nomi esa kosmonimika deb yuritiladi. Masalan: Qalqon, Katta Ayiq, Quyosh, Sekstant, Janubiy Baliq, Shimoliy Toj, Oq yulduz, Qizil yulduz (Mirrix) kabilar. Kosmogoniya o'zida falakiyot ilmining ikki jabhasini birlashtiradi. Bularning biri ilmi hay'at – astronomiya bo'lsa, ikkinchisi ilmi nujum – astrologiyadir. Ilmi hay'atda osmon jismlarining joylashuvi, ularning harakat yo'nalishlari, ilmi nujumda esa ana shu harakatning Yer shari va inson taqdiriga turli xil ta'siri masalalari o'rganiladi. Sharqda falakiyot ilmiga alohida ahamiyat berilgan. Ilmi hay'at va ilmi nujumning muayyan qirralari haqidagi dastlabki qarashlar juda qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Jumladan, otashparastlik dini vakillariga 18 ta sayyora, ularning nomi ma'lum edi, shulardan yettitasi Quyosh, Oy, Utorid, Zuhra, Mirrix, Mushtariy va Zuhal bo'lib, ular qadimda yetti sonining ilohiylashuviga sabab bo'lgan. Yoki zardushtiylik dinida olov Quyoshning bir bo'laki hisoblangan. Qadimgi hind-eron mifologiyasida ertalab ufqdan bosh ko'targan Quyoshning to kun botguniga qadar osmonni aylanib o'tishidan iborat harakati zarrin nur sochib turuvchi aravaga minib olgan Mitraning samoni aylanib chiqishi tarzida tasavvur qilingan. Momaqaldiroqning tangri aravasining g'ildiraklariga mengzalishi ana shu samoviy miflarning e'tiqodiy qarashlarga aylangan holda bizgacha yetib kelgan qoldiqlari sanaladi. Bundan ko'rinadiki, otashparastlikda muqaddas sanalgan to'rt unsurdan biri – olov – samoviy jism, ya'ni Quyosh ma'nosida ham tushunilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida ayta olamizki, "Sab'ai sayyor" asarida hali e'tiborga olinmayotgan onomastik birliklar talaygina. Jumladan, kosmonimlar ham o'rni bilan qo'llangan. Navoiyning lug'at boyligining qay darajada kengligini uning asarda hatto kosmonimlarning sinonimlaridan ham mahorat bilan foydalanishidan bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент, 2013. – Б.10.
2. Hojjiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent, 1985. – B.17.
3. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент, 2013. – Б.11.
4. Навоий А. Саъбаи сайёр. – Тошкент: Фафур Фулом, 1991. – 367 б. (криллича). Қолган мисоллар ҳам шу китобдан олинади.
5. Sirojiddinov Sh., Ashurova G. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida turkona tafakkur va g'oyaviy va badiiy asos. – Toshkent, 2021. – B.339.
6. <https://navoi.natlib.uz>
7. Qilichev B. Onomastika [Matn]: o'quv qo'llanma. – Buxoro, 2023. – B.109.
8. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.42.
9. Qilichev B. Onomastika [Matn]: o'quv qo'llanma. – Buxoro, 2023. – B.98.
10. Қиличев Э. Лақабларда номинативлик. – Тошкент, 1991, 1-сон. – Б.25.
11. Qilichev B. Onomastika [Matn]: o'quv qo'llanma. – Buxoro, 2023. – B.109.
12. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент, 2007. – Б.52.
13. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B.6.
14. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B.75.
15. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent, 2017. – B.42.
16. Xayrullayeva M. (2022). Xalq, millat, qavm va urug' nomiga asoslangan toponimlar. Yosh tadqiqotchi jurnali, 2181-3132.
17. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – Б.32.
18. <https://qomus.info>
19. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.41.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.